

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

SERIKBAEVA AKMARAL SAXRATDINOVNA

**TAXTAKO‘PIR TUMANI TOPONIMLARINING
SEMANTIKASI VA TUZILISHI**

10.00.03 – Qoraqalpoq tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Serikbaeva Akmaral Saxratdinovna

Тахтакo‘pir tumani toponimlarining semantikasi va tuzilishi..... 3

Серикбаева Акмарал Сахратдиновна

Семантика и структура топонимов Тахтакупырского района..... 23

Serikbaeva Akhmaral Sakhratdinovna

Semantics and structure of toponyms of the Takhtakupyr District..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 49

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

SERIKBAEVA AKMARAL SAXRATDINOVNA

**TAXTAKO‘PIR TUMANI TOPONIMLARINING
SEMANTIKASI VA TUZILISHI**

10.00.03 – Qoraqalpoq tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2018.4.PhD/Fil655 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.karsu.uz) va «Ziyonet» axborot ta’lim portalida (www.ziyonet)) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Paxratdinov Quralbay Atawbaevich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Pirniyazova Alima Qudiyarovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Bekbegrenov Qidirbay Ayjariqovich
filologiya fanlari nomzodi

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «__» _____ soat __dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov, 1-uy. Tel: (99861) 223-59-25, faks: (99861) 223-59-25; e-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (__ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «__» _____ da tarqatildi.
(2025-yil «__» _____dagi __ raqamli reestr bayonnomasi).

Q.K.Orazimbetov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., professor

J.O.Tanirbergenov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

A.K.Pirniyazova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filol.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida jo'g'rofiy atamalar semantikasini belgilash, joy nomlari strukturasi tarixiy o'zgarishini kuzatish, muayyan mintaq toponimik xaritasi o'ziga xosligini tavsiflash, istiloh etimologik talqinini murakkab bog'lanishda o'rganish, ijtimoiy-siyosiy hamda tarixiy-madaniy mohiyatini yoritishga jiddiy e'tibor qaratiladi. Binobarin, jamiyat kundalik moddiy va ma'naviy holati, iqtisodiy shart-sharoit hamda maishiy hayotga aloqador so'zlarning tarqalish hududlarini aniqlash onomastik birliklarni geografik relyefda tadqiq qilishni ilmiy ehtiyoj qilib qo'yadi.

Dunyo lingvistikasida tarixiy obyektlarni ro'yxatga olish va qayta nomlash tamoyillarini tasniflash, jo'g'rofiy atamalarning vujudga kelish qonuniyatlariga oydinlik kiritish, joy nomlari amaliy transkripsiyasini tuzish, toponimika bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish hamda himoyalash hamisha muhim vazifa sanalgan. Vaholanki, indikator etimologiyasini umumlashtirish aholi etnik xususiyatlarini belgilashga zamin hozirlaydi, nutq malakasi, dunyoqarash, tafakkur va tasavvur ta'sirida hosil bo'ladigan barqaror tushuncha makonni atash hamda tafovutlashga imkon beradi. Shunday ekan, muayyan hudud toponimik kartasini tuzish obyekt atamasi tabiati, xususiyati, xarakteri va tarixiy takomilini aniqlashga xizmat etadi.

Milliy tilshunoslik taraqqiyotida til tamoyillarini isloh qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilayozdi: izchil, bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan ilg'or ilmiy paradigmalariga asoslangan yangi tadqiqotlar yaratish ayni paytda ustuvor vazifa etib belgilangan. Joriy holatda millat ravnaqi uchun muhim ahamiyat kasb etadigan omillar natijasi o'laroq "vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim".¹ Bu borada Qoraqalpog'iston Respublikasi hududi toponimlarining tarixiy-lingvistik, nominatsion-motivatsion, etimologik, derivatsion xususiyatlarini tadqiq etish va tasniflash hamda tavsiflash, shu asosda qoraqalpoq toponimikasini ilmiy-nazariy qarashlar va amaliy talqinlar bilan boyitish ayni kun zaruratidir.

Hozirgi kunda qoraqalpoq tili toponimiyasi oldida geografik obyektlarni nomlash siyosati asosida yangi tadqiqotlar olib borish vazifasi turibdi. Bu vazifalar qatoriga toponimlarning leksik-semantik, nominativ-motivatsion xususiyatlari, yasalish usullari va modellarini ijtimoiy-lingvistik va etnolingvistik jihatdan o'rganish ham kiradi. Shu asosda Qoraqalpog'iston Respublikasi, xususan, Taxtako'pir tumani toponimlarining o'ziga xos xususiyatlarini yoritish qoraqalpoq onomastikasini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Qoraqalpog'iston toponimiyasining umumiy xususiyatlarini anglash, uning lug'aviy boyligi haqida yaxlit tasavvur hosil qilish uchun respublikaning barcha hududlari, jumladan, tumanlarning toponimik materiallarini to'plash va tadqiq etish lozim. Bu borada boy toponimik materialga ega bo'lgan Taxtako'pir tumani

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2018. – B. 22.

toponimlarining til xususiyatlarini monografik tarzda o‘rganish muayyan nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847 “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084 “Mamlakatda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Prezidiumining 2020-yil 3-noyabrdagi “Qoraqalpoq tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va maqomini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2021-yil 16-iyuldagi “Qoraqalpoq tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoyishida hamda ushbu faoliyatga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qoraqalpoq toponimikasi tadqiqi yo‘nalishi keyingi yillarda rivojlanib bormoqda. Uning dolzarb masalalari bo‘yicha nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan,² Qoraqalpog‘iston toponimlari lug‘ati tuzib chiqilgan.³ Biroq erishilgan yutuqlarga qaramay, qoraqalpoq toponimikasi hali ko‘plab vazifalarni hal etishi lozim. Shulardan biri Qoraqalpog‘iston toponimlarini to‘liq o‘rganish va tavsiflashdir. Shubhasiz, keng ko‘lamli tadqiqotlarsiz Qoraqalpog‘iston toponimlarining umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarini ishonchli hamda yakuniy tarzda talqin qilib bo‘lmaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz hozirgacha maxsus tadqiq etilmagan Taxtako‘pir tumani toponimlarini o‘rganishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik.

Dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining “Hozirgi qoraqalpoq tilining dolzarb masalalari” mavzusi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi. Ishning asosiy maqsadi – Taxtako‘pir tumani toponimlarining semantik va grammatik xususiyatlarini aniqlash, shu asosda

² Абдимуратов К. Топонимика Каракалпакии: Автореферат кандидатской диссертации. – Нукус, 1966; Мамбетова Г. Қорақалпоғистоннинг шимолий туманлари гидронимлари: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси автореферати. – Нукус, 2018; Абишов Г. Чимбой тумани топонимларининг тарихий-лингвистик таҳлили: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси автореферати. – Нукус, 2019; Холмуратов И. Жанубий Қорақалпоғистон ойконимларининг лисоний тадқиқи: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2020; Есемуратов А. Хўжайли топонимларининг тарихий-лингвистик таҳлили: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси автореферати. – Нукус, 2022; Курбанов М. Қорақалпоғистон ойконимларининг тарихий-лингвистик таҳлили: Филология фанлари доктори диссертацияси автореферати. – Нукус, 2025.

³ Пахратдинов Қ., Абишов Г. Қарақалпақстан топонимлери сөзлиги. – Нөкис: Билим, 2025.

toponimik birliklarning nomlanish sabablarini ko'rsatish, tuman toponimiyasining umumiy va o'ziga xos jihatlarini belgilashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- Taxtako'pir tumani hududidagi toponimik materiallarni har tomonlama to'plash va tizimlashtirish;
- toponimlarni leksik-semantik xususiyatlariga ko'ra tasniflash;
- toponimlarning paydo bo'lish yo'llari va ularning nomlanish tamoyillarini aniqlash;
- tuman toponimiyasining vujudga kelishi va rivojlanishiga sabab bo'lgan lingvistik va ekstralingvistik omillarni belgilash;
- toponimlarning tuzilishi va shakllanish turlarini tahlil etish;
- mahalliy nomlarni yaratishda apellyativlarning o'rnini va ularning tarqalish hududini aniqlash;
- Taxtako'pir tumani toponimlarining tarixiy-etimologik tahlilini o'tkazish.

Tadqiqot obyekti sifatida Taxtako'pir tumani geografik nomlar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti. Taxtako'pir tumani toponimlarining shakllanishidagi lingvistik va ekstralingvistik omillar, toponimlarning semantik va grammatik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotni amalga oshirishda turkiy tilshunoslikdagi onomastika, toponimika, lingvogeografiya masalalariga oid ilmiy ishlar va metodlarga tayanildi. Dissertatsiyada tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, tarixiy-etimologik, nominatsion-motivatsion, struktur-lingvistik, statistik usullardan foydalanildi.

Ishning asosiy metodi lingvistik tavsif metodi, materiallarni to'plash, ishlab chiqish va izohlash hisoblanadi. Shuningdek, ishni yozish jarayonida informatorlardan savol va ijtimoiy savolnoma yuritish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- Taxtako'pir tumani toponimlari xalqning tarixi, madaniyati va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiruvchi leksik birliklar sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari ochib berildi;
- Qoraqalpog'istonning boshqa tumanlariga nisbatan Taxtako'pir tumani toponimlarining umumiy va o'ziga xos jihatlari aniqlandi;
- Taxtako'pir tumani toponimlarining vujudga kelishiga sabab bo'lgan lingvistik va ekstralingvistik omillar belgilandi;
- tuman toponimlari semantik guruhlariga ajratilib, ularning noyobligi asoslandi;
- tuman toponimlarining yasalish xususiyatlari, shuningdek, ularning grammatik tuzilishiga ko'ra turlari aniqlandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

– Taxtako'pir tumani toponimiyasi bo'yicha to'plangan materiallar, qo'yilgan masalalarni tadqiq qilish natijasida olingan xulosalar hozirgi qoraqalpoq tilining toponimikasi uchun muhim ilmiy ma'lumot berishi, qoraqalpoq tilining toponimikasiga oid tadqiqotlar olib borishda manba bo'lib xizmat qilishi,

leksikologiya, onomastika, dialektologiya va geografiya fanlarini o'qitishda, ularni yangi ilmiy-nazariy qarashlar, manbalar bilan to'ldirishda amaliy yordam berishi asoslangan;

– tadqiqot natijalari toponimika, geografiyaga doir izohli va imlo lug'atlarini tuzishda material va manba sifatida xizmat qilishi ko'rsatilgan;

– tadqiqot materiallari kelgusida tilshunoslik, shuningdek, tarix, etnografiya, geografiya, madaniyatshunoslik fanlari yo'nalishlarida bajariladigan tadqiqotlarda yordamchi material vazifasini bajara olishi qayd etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan usullar, unda foydalanilgan nazariy ma'lumotlarning ishonchli ilmiy hamda rasmiy manbalardan olinganligi, ilmiy xulosalar tarixiy-qiyosiy, tarixiy-etimologik, tavsifiy, statistik, nominativ va struktural-linsvistik tahlil usullariga asoslanganligi, nazariy mushohada hamda taklif-tavsiyalarning amaliyotda keng qo'llanilganligi, olingan natijalarning tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, dissertatsiyada Taxtakopir tumani toponimlarining leksik-semantik, struktur xususiyatlari har tomonlama o'rganilgan bo'lib, tadqiqot ishi onomastika va toponimika asoslari, tarixiy leksikologiya va dialektologiya bilan bog'liq ilmiy-nazariy qarashlarni to'ldiradi va boyitadi. Dissertatsiyaning xulosalari va tadqiq usullaridan Qoraqalpog'istonning boshqa hududlari toponimiyasini o'rganishda foydalanish mumkin.

Ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot natijalari qoraqalpoq tilining onomastikasi, leksikologiyasi va dialektologiyasining nazariy va amaliy masalalarini yoritishda, onomastika va geografiya fanlarini o'qitishda, qoraqalpoq tilining toponimikasiga oid darslik hamda uslubiy qo'llanmalar yaratishda, ta'lim muassasalarida Qoraqalpog'iston toponimiyasi bo'yicha maxsus kurslarni tashkil etishda, Qoraqalpog'iston toponimlarining izohli lug'atlarini tuzishda manba sifatida xizmat qiladi. Tarix, geografiya, arxeologiya, etnografiya kabi bir qancha fanlar uchun ham muhim manba vazifasini o'taydi. Ishning xulosalaridan Qoraqalpog'iston toponimiyasining nazariy masalalarini ishlab chiqishda va amaliy vazifalarni hal etishda tilshunoslar, geograflar, tarixchilar foydalanishlari mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Taxtakopir tumani toponimlarini o'rganish bo'yicha olingan ilmiy natijalar quyidagicha joriy etilgan:

Taxtakopir tumani toponimlarining nomlanish sabablarini aniqlash natijalari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2017–2020-yillarda bajarilgan FA-F-1-005 raqamli "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" mavzusidagi loyihani amalga oshirishda qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2025-yil 27-martdagi 165/1-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Taxtakopir tumani toponimlarining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan lingvistik va ekstralingvistik omillarni yoritishga erishildi;

yangi geografik obyektlarga nom berish, respublika toponimlarining semantik xususiyatlarini aniqlash, imlo qoidalari, tarixiy nomlarni tiklash, toponim nominatsiyasida tabiiy-geografik va etnografik omillarning o'zini, bir toponimik obyektning boshqasiga o'zgartirilish sabablari bo'yicha xulosalardan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi huzuridagi Davlat tilini rivojlantirish departamenti geografik obyektlar nomlarini tartibga solishda foydalangan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi huzuridagi Davlat tilini rivojlantirish departamentining 2025-yil 5-apreldagi 11-06/5-04/368-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, respublika toponimlarining semantikasi, imlo qoidalari, geografik obyektlarning nomlanish tartibi, hududning tabiiy-geografik xususiyatlari haqida to'liq ma'lumot berishga erishildi;

Taxtako'pir tumani toponimlarining Qoraqalpog'istonning boshqa tumanlari toponimlari bilan o'xshash va farqli xususiyatlari haqidagi ilmiy xulosalar Qoraqalpog'iston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi faoliyatida qo'llanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasining 2025-yil 19-martdagi 01-197-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Taxtako'pir tumani toponimlarining o'ziga xos xususiyatlari bilan keng jamoatchilikni tanishtirish orqali axborot va ommaviy axborot vositalarining madaniy-ma'rifiy ahamiyatini oshirishga erishildi;

geografik obyektlarga nom berish tamoyillarini asoslash, geografik obyektlarning rasmiy ro'yxatini to'ldirish, toponimlarning tarixiy-madaniy ahamiyatini har tomonlama o'rganish, tarixiy nomlarni saqlab qolish bilan bog'liq materiallar Qoraqalpog'iston teleradiokompaniyasining "G'awhar so'zlar", "Assalawma áleykum, Qaraqalpaqstan" va "Jaslar ushin", "Miyras" teleko'rsatuvlari orqali keng jamoatchilikka taqdim etildi (Qoraqalpog'iston teleradiokompaniyasining 2025-yil 25-martdagi 05-22/175-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Taxtako'pir tumani toponimik materiallari bilan keng jamoatchilikni tanishtirish orqali teleko'rsatuv va radioeshittirishlarning madaniy-ma'rifiy ahamiyatini oshirishga erishildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shundan 7 tasi xalqaro va 3 tasi respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza shaklida sinovdan o'tkazildi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusiga oid jami 19 ta ilmiy ish nashr etilgan bo'lib, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarning asosiy natijalarini chop qilish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta ilmiy maqola, shundan 5 ta respublika va 4 ta xorijiy ilmiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, asosiy to'rt bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 132 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan

va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Taxtako‘pir tumani toponimiyasiga oid manbalar**” deb nomlangan birinchi bobi ikki qismdan iborat. Birinchi bobning “**Tarixiy va arxeologik manbalar**” deb nomlangan birinchi qismida tarixiy va arxeologik manbalardagi toponimik materiallar tahlili keltirilgan. Taxtako‘pir tumani Qoraqalpog‘iston Respublikasining shimoli-sharqidagi tarixiy hududlardan biri bo‘lib, qo‘shni Qozog‘iston Respublikasi hududiga olib boradigan asosiy yo‘l bo‘ylab joylashgan. Hozirgi Taxtako‘pir qishlog‘i va Qorateren hududi ilgari *Dáwqara elati*, ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra esa *Dáwqara kóli* yoki *Dáwqara oypati* deb atalgan.⁴

Bu joyning *Taxtako‘pir* deb atalishi taxta ko‘prik qurilishi bilan bog‘liq. Ko‘prik 1904-yilda foydalanishga topshirilgan (ba’zi manbalarda 1903-yil deb ko‘rsatilgan). Taxtako‘pirning hozirgi joylashuvi Xiva, Urganch, Ko‘hna Urganch, Qo‘ng‘irot, Xo‘jayli, To‘rtko‘l va Chimboy shaharlari orqali o‘tadigan savdogar karvonlari uchun asosiy yo‘l bo‘lgan. Karvonlar bu yerda to‘xtab, Qizil O‘rdaga borish va qaytish yo‘lida savdo qilishgan.

1903-yilda daryoning ikki qirg‘og‘idagi aholi Xo‘jamet bo‘lis boshchiligida ko‘prik qurilishini muhokama qilishdi. Qishda daryo muz bilan qoplanganda, ular teshiklar ochib, yog‘och ustunlarni tikkasiga bir qator qilib qoqib, ularni mustahkamlaganlar. Ustalar qalin bo‘ylama to‘sinlarni tayanch yog‘ochlar qatoriga zich joylashtirganlar. Ko‘ndalangiga qayrag‘ochdan yasalgan qalin taxtalar yotqizilgan.

Taxtako‘pir tumani 1928-yilda tashkil etilgan. 1963-yilda tuman Chimboy tumaniga qo‘shilgan. Ko‘p o‘tmay, 1965-yilda u yana Chimboy tumanidan ajralib chiqqan.

Taxtako‘pir tumani janubda Beruniy tumani, janubi-sharqda Ellikqal’a tumani, g‘arbda Qorao‘zak tumani, shimoli-g‘arbda Mo‘ynoq tumani, shimoli-sharqda Qozog‘iston Respublikasi, sharqda Navoiy viloyati bilan chegaradosh. Umumiy maydoni 21,12 ming km² bo‘lib, yer maydoni bo‘yicha Qoraqalpog‘iston tumanlari orasida Qo‘ng‘irot va Mo‘ynoq tumanlaridan keyin uchinchi o‘rinda turadi.

Xalq deputatlari tuman Kengashining 2020-yil 7-oktabrdagi 12/89-sonli “Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha Taxtako‘pir tuman komissiyasi yig‘ilishining 2020-yil 14-maydagi 01/08/77-sonli bayonnomasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, hozirda tuman hududida 1 ta shaharcha, 8 ta ovul fuqarolar yig‘ini, 39 ta aholi punkti, 8 ta mahalla va 378 ta ko‘cha davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan. Tuman markazi Taxtako‘pir shaharchasidir.

⁴ Эбдимуратов Қ. Неге усылай аталған? – Нөкис, 1965. – Б. 47.

Qoraqalpog‘iston hududidagi ko‘plab tarixiy qal‘a va qo‘rg‘onlar, qadimiy ovullar, aholi manzilgohlari, suv havzalari haqidagi ma‘lumotlarni arxeolog va tarixchilarning ilmiy asarlarida uchratish mumkin. Rus sayyohlari D.Gladishev va Muravin 1740-yilda Sirdaryoning quyi oqimidan Xiva tomon yo‘l olib, Davqarani kesib o‘tganlar. Ularning xaritalari va qo‘lyozmalarida Davqara yerlari, yuqorida ta‘kidlanganidek, dengiz ko‘rinishida aks ettirilmagan. Bu yerda alohida kichik ko‘l, ekin maydonlari, kichik shaharchalar va suv havzalari mavjudligi tasvirlangan.⁵ S.P.Tolstov tadqiqotlarida Taxtako‘pir tumani hududida joylashgan *Baraqtam* va *Bilewliqor‘gan* yodgorliklari haqida ma‘lumotlar keltirilgan.⁶ *Baraqtam* arxeologik majmuasi Taxtako‘pir tumanidagi Qo‘struba qishloq fuqarolar yig‘ini hududida joylashgan. Ushbu majmua uchta saroy qoldiqlarini o‘z ichiga oladi. Ularning atrofida yirik manzilgohlarning qoldiqlari, tekislangan qadimiy dalalar, Janadaryo suvidan olingan sug‘orish kanallarining izlari mavjud.⁷

Arxeologlar Baraqtamni xionit qabilalarining birlashmasidan qolgan yodgorlik deb hisoblaydilar. Xionitlar IV–V asrlarda O‘rta Osiyoda muhim rol o‘ynagan.⁸

S.Kamalovning asarlarida qoraqalpoqlarning XVIII asrda Sirdaryoning o‘rta va quyi oqimlaridan Janubiy Orolbo‘yi, Quvondaryo va Janadaryo atroflariga ko‘chish jarayoni, kelgandan so‘ng yashagan joylari, jumladan, *Qo‘hirat*, *Shimbay*, *Xojeli*, *Ma‘ngit*, *Aqqala*, *Aydosqala*, *Ernazarqala* kabi qal‘a va istehkomlar hamda ularning vujudga kelish davrlari haqida ma‘lumotlar keltirilgan.⁹

M.Mambetullayev va O.Yusupovlar Taxtako‘pir tumanidagi *Serenqala*, *Meterqala*, *Aydosqala*, *Qosminar* qal‘alarining tarixi, geografik joylashuvi, hududiy chegaralari va topografiyasi haqida boy ma‘lumotlar taqdim etishgan.¹⁰

Taxtako‘pir tumanining sug‘oriladigan hududlari va Qizilqum sahrosi bo‘ylab turli arxeologik obyektlar saqlanib qolgan.

Qizilqum tarixi – Taxtako‘pir tarixidir. Bu muqaddas o‘lkadagi *Qizilrabat*, *Shirikrabat*, *Baraqtam*, *Qor‘gansha*, *Serenqala*, *Xojaqoy‘gan*, *Meterqala*, *Qilishqala*, *Shobanqaz‘gan*, *Abil‘gazi xan minarasi*, *Aydosqala*, *Juyrikbas*, *Qosminar*, *Taqminar*, *Mawdu‘ tam* kabi qal‘a va istehkomlar, shuningdek *Besmeshit*, *Ayumbet iyshan*, *Qamslu iyshan*, *Mustafa iyshan* madrasalari singari tarixiy joylar aholining yuksak madaniy turmush darajasidan dalolat beradi.

Birinchi bobning ikkinchi qismi “**Lingvistik manbalar**” deb nomlangan. Unda tilshunoslik asarlaridagi toponimik materiallar tahlili keltirilgan.

⁵ Гулямов Я. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. – Ташкент, 1957. – С. 193.

⁶ Толстов С.П. Қадимий Хоразм цивилизациясини излаб. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2014. – Б. 29, 108, 200, 368.

⁷ Ягодин В.Н. Эйемги маданият ғазийнелери. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1979. – Б. 41.

⁸ Қарақалпақстан АССР тарийхи. I том. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1975. – Б. 38.

⁹ Камалов С. Қарақалпаки в XVIII–XIX веках. – Ташкент: Фан, 1968. – С. 328.

¹⁰ Мамбетуллаев М.М., Юсупов О.Ж. Города и поселения Каракалпакии в XVII–XX вв. (Материалы к своду памятников материальной и духовной культуры каракалпаков). // «Вестник Каракалпацкого отделения АН Узбекистана», 2005. – № 1-2. – С. 95–106.

K.Abdimuratovning “Nege usilay atalgan?” (Nókis: Qaraqalpaqstan, 1970) kitobining oxirida Qoraqalpog‘iston toponimlarining qisqacha lug‘ati berilgan. Ushbu lug‘atda Taxtako‘pir tumanining *Aydosqala, Arziqala, Beltaw, Dáwqara, Esimózek, Jalańashqum, Jalǵızterek, Qaradala, Qaratereń, Qońuratjap, Lawzansay, Maqpalkól, Múyten awılı, Mıńqazaq, Naǵaykól, Nurımtúbek, Seksewildala, Taxtakópir* kabi toponimlari qayd etilgan.

G.Mambetovanning “Qaraqalpaqstanniń arqa rayonları gidronimleri” (Nókis: Qaraqalpaqstan, 2021) nomli ishida Taxtako‘pir tumani hududida uchraydigan 46 ta gidronim tahlil qilingan.

“Qaraqalpaqstan toponimleri sózligi” kitobida Taxtako‘pir tumanining 226 ta toponimi keltirilgan va ularning nomlanish sabablari tushuntirilgan.¹¹

“O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati”da Qoraqalpog‘iston hududida uchraydigan 150 ga yaqin geografik nomlar bilan bir qatorda Taxtako‘pir tumanining *Aydosqala, Baraqtam, Beltaw, Dáwqara, Maqpalkól, Qaratereń, Taxtakópir* nomlari ham keltirilgan.¹²

1980–1990-yillarda kirill alifbosida nashr etilgan “Qaraqalpaq tiliniń orfografiyalıq sózligi”ning oxirida Qoraqalpog‘iston toponimlarining qisqacha ro‘yxati berilgan.¹³ Unda Taxtako‘pir tumanining 37 ta toponimi, 2020-yilda lotin alifbosida chop etilgan imlo lug‘atida esa 31 ta toponim keltirilgan.¹⁴

K.Qunnazarovning “Qaraqalpaqstanniń qala hám rayonları” (Nókis, Qaraqalpaqstan, 2016) kitobida Taxtako‘pir tumani toponimlari haqida ma’lumotlar keltirilgan: *Dáwqara, Qaratereń, Jalańashqum, Mawdıń kóli, Marjankól, Maqpalkól, Sarıkól, Qońuratkól, Taxtakópir, Bórshitaw, Aqqum, Qızılqum, Atakól, Qaraqol, Eshkiólgen, Aqbaslıkól.*

“Taxtakópir táriypi” deb nomlangan kitobda Taxtako‘pir tumani hududidagi *Baraqtam, Qorǵansha, Aydosqala, Serenqala, Meterqala* kabi tarixiy yodgorliklar va qal’alar tarixi, *Qaratereń, Bórshitaw, Júyrikbas, Quwanıshjarma, Jańasuw, Taxtakópir, Balkeózek, Ibrayımózek* kabi toponimlarning nomlanish sabablari hamda *Dáwqara* nomi bilan bog‘liq xalq orasida saqlanib qolgan afsonalar keltirilgan.¹⁵

“Qoraqalpog‘iston Respublikasi geografik atamalarining izohli lug‘ati” kitobida ham Taxtako‘pir tumani hududidagi 94 geografik obyektning nomlari qayd etilgan.¹⁶

“Taxtako‘pir tumani toponimiyasida qo‘llaniladigan apellyativlar” deb nomlangan ikkinchi bobda Taxtako‘pir tumani toponimlari tarkibida ishtirok etgan apellyativlarning o‘rni va vazifalari, ularning leksik-semantik guruhlari tahlil qilingan. Zamonaviy qoraqalpoq tili va uning shevalari geografik nomenklatura terminlarining keng tizimiga ega. Bunday apellyativlarning

¹¹ Пахратдинов К., Абишов Г. Қарақалпақстан топонимлери сөзлиги. – Нөкіс: Qaraqalpaqstan, 2021. – Б. 80.

¹² O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati [Matn]. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – Б. 624.

¹³ Қарақалпақ тилинің орфографиялық сөзлиги. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 1980. – Б. 398–403; Қарақалпақ тилинің орфографиялық сөзлиги. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 1990. – Б. 350–354.

¹⁴ Qaraqalpaq tiliniń orfografiyalıq sózligi. – Nókis: Bilim, 2020. – Б. 512–517.

¹⁵ Әбдиев А., Реймов А. Тахтакөпір тәрийпи. – Ташкент: Турон-икбол, 2019. – Б. 25–51.

¹⁶ Seytniyazov Q.M., Baltabayev O.O., Abishov G., Qurbanov M., Tureeva G. Qaraqalpaqstan Respublikası geografiyalıq atamalarınıń túsindirme sózligi. – Tashkent: Bookmany print, 2025.

maydalik darajasi, odatda, qoraqalpoq tilida soʻzlashuvchilarning uzoq vaqt davomida moddiy va maʼnaviy madaniyatining rivojlanish darajasini, ishlab chiqarish kuchlarining xususiyatini, ishlab chiqarish munosabatlarini aks ettiradi.

“Aynan termin koʻpincha toponimning mazmun-mohiyatini belgilaydi va oʻz-oʻzidan yoki soʻz birikmalari orqali maʼlum va boy geografik, sotsiologik maʼlumotlarga ega boʻlib, birinchi navbatda geografik voqelikka ishora qiladi”.¹⁷ Bu haqda mashhur toponimist olim E.M.Murzayev shunday deydi: “Har qanday toponimik tadqiqot mahalliy geografik atamalarni oʻrganishdan boshlanishi kerak”.¹⁸ Shu sababli, har qanday hududni oʻrganishda mahalliy toponimlar tarkibida uchraydigan apellyativlarni leksik-semantik xususiyatlariga koʻra guruhlariga ajratish va ularning toponim hosil qilishdagi vazifasini aniqlash muammoning yechimini topishga yordam beradi.

Taxtakoʻpir tumani toponimlari tarkibida ishtirok etgan apellyativlarni semantik jihatdan quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Oykonimik apellyativlardan yasalgan toponimlar. Aholi punktlari va ovul nomlarini hosil qilishda *awil, elat, qala, tam, posyolka* apellyativlari faol ishtirok etadi: *Aydosqala, Serenqala, Bessari awili, Qabil awili, Qaraoy elati, Taza posyolka, Taxtakopir posyolkasi, Baraqtam, Mawdiʼn tami* va boshqalar. Taxtakoʻpir tumanidagi *Aydosqala, Serenqala, Jiydeqala, Qorganshaqala, Qilishtiʼn qalasi* toponimlari aholi toʻplanadigan va kichik savdo ishlari olib boriladigan joy bilan bogʻliq holda qoʻllanilgan.

Elat soʻzi aholi zich yashaydigan ovul aholisining yashash joyiga nisbatan ishlatiladi. Masalan, Taxtakoʻpir tumanida *Bekbosin elati, Qaraoy elati, Qanjigali elati. Elat* oykonimik apellyativi oʻrnida baʼzan ruscha *posyolka* soʻzi ishlatiladi: *Taza posyolka*.

Awil apellyativining tarqalish doirasi keng. Taxtakoʻpir tumanida *awil* komponentli toponimlar koʻp: *Bessari awili, Iyshanawil, Kepe awili, Qabil awili, Remet awili, Qazaq awili, Qipshaq awili* va boshqalar.

2. Gidronimik apellyativlardan yasalgan toponimlar. Taxtakoʻpir tumani toponimiyasining maʼlum qismini gidronimlar tashkil etadi. *Jap, ózek, túbek, bóget, jarǵan, jarma, qazǵan, bulaq, kól, qudiq, say, salma, shúngil, nura, saǵa, dárya, qaq, oy, áwit* apellyativlari gidronimik nomlarning tarkibiy qismi sifatida qoʻllaniladi. Taxtakoʻpir tumani gidronimiyasida bu apellyativlar suv obyektlarining qoʻshma nomlarini, shuningdek, mikrotoponimlarni hosil qilishda ishtirok etadi. Taxtakoʻpir tumani gidronimlari bir qator omillar asosida yuzaga kelgan:

a) antroponimlardan shakllangan toponimlar: *Izbasqanjap, Nadirjap, Ibrayimózek, Balkeózek, Ayjantúbek, Babajantúbek, Atamuratbóget, Turimbetjarǵan, Quwanishjarma, Ábdibulaq, Biymaqanbulaq, Aytjankól, Berdambetkól, Aybosinqudiq, Naǵiyqudiq, Sadıqsay, Palmansay, Esenbaysalma, Álimbetshúngil, Muratshúngil* va boshqalar.

¹⁷ Мурзаев Э.М. Местные географические термины и их роль в топонимике. – М., 1966. – С. 3.

¹⁸ Мурзаев Э.М. Словарь народных географических терминов. – М.: Мысль, 1984. – С. 17.

b) obyekt atrofida yashagan urug' nomlaridan hosil bo'lgan toponimlar: *Mánjiwlitúbek, Qarasaqaljap, Tórtqarajap* va boshqalar.

g) obyektning shakli va tuzilishiga ko'ra shakllangan toponimlar: *Domalaqkól, Jalañashkól, Domalaqoy* va boshqalar.

d) suv havzalarining hid yoki ta'm xususiyatlaridan hosil bo'lgan toponimlar: *Sasiqózek, Ashshíbulaq, Duzbulaq*.

e) obyektning hayvonot yoki o'simlik dunyosi nomlari bilan bog'liq toponimlar: *Shibintúbek, Tomarbóget, Túlkibóget, Biydaykól, Qamıslıkól, Shiginkól, Baqalıkól, Pishenkól, Aqbasqudıq, Shimishkisay, Torañgılsay* va hokazo.

Taxtako'pir tumani aholisi tilida *nura, qaq, áwit* apellyativlari faol qo'llaniladi.

3. Oronimik apellyativlardan yasalgan toponimlar. Geografik nomlarning shakllanishida oronimlar ham muhim omil hisoblanadi. Taxtako'pir tumani toponimiyasida oronimlar sezilarli o'rin egallamasa-da, ma'lum bir guruhni tashkil etadi. Ular, asosan, *tóbe, qum, shoqi, taw* kabi apellyativlar yordamida hosil bo'ladi: *Dáwtóbe, Marjantóbe, Atshabartóbe, Beltaw, Bórshitaw, Baykequm, Lawzanqum, Aqqum, Narmanqum, Tasshoqi, Úyshoqi*.

4. Agronimik apellyativlardan yasalgan toponimlar. Agronimik apellyativlar dala, ekin maydoni, yaylov va yerning sifat xususiyatlari bilan bog'liq holda qo'llaniladi. Taxtako'pir tumani hududidagi toponimlar tarkibida *jer, kebir, boz, jaylaw* apellyativlari uchraydi: *Matekejer, Mamanjer, Tut ańız jer, Qarasor* kabilar.

5. Dromonimik apellyativlardan yasalgan toponimlar. Dromonimlar – yo'l munosabatlarining geografik nomlaridir.¹⁹ Taxtako'pir tumani toponimiyasi tarkibida faqat bitta dromonimik apellyativ – *jol* ishtirok etgan toponimlar mavjud: *Aydosjol, Shabarjol, Tazajol, Qazınń jolı* va boshqalar.

Taxtako'pir tumani toponimiyasida qo'llanilgan apellyativlar geografik obyektning turli belgi-xususiyatlari va landshaftini ifodalash bilan birga, u haqda ma'lumot beradi.

Ayrim toponimlarni tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: 1) apellyativlarning ko'pchiligi ko'pgina turkiy tillar uchun umumiy hisoblanadi. Chamasi, ular umumturkiy birlik davrida yuzaga kelgan; 2) Taxtako'pir tumani geografik terminlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular oykonim, gidronim va mikrotoponim nomlarini shakllantirishda faol ishtirok etadi; 3) yuqorida tahlil qilingan apellyativlardan asosan Taxtako'pir tumaniga xos bo'lgan maxsus apellyativlar – *nura, qaq, áwit*. Qolgan apellyativlar Qoraqalpog'istonning barcha hududlarida uchraydi. Apellyativlarning bunday xususiyatlari Qoraqalpog'iston toponimlarini o'rganishda amaliy yordam ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Taxtako'pir tumani toponimlarining semantik xususiyatlari**” deb nomlangan. Toponimlarning leksik-semantik tasnifi toponimik tadqiqotning muhim vazifalaridan biridir. U atrof-muhitning tabiiy-

¹⁹ Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1988. – С. 57.

geografik xususiyatlarini, insonning amaliy faoliyati, uning chorvachilik, ovchilik, dehqonchilik bilan shug'ullanishi haqidagi ma'lumotlarni aniqlashda vosita bo'lib xizmat qiladi va bu tarixiy xarakterdagi ba'zi xulosalar uchun asos bo'lishi mumkin. Turkiy tillar toponimikasida toponimlarning semantik tasnifi bo'yicha bir qator tadqiqotlar mavjud.²⁰

Q.Abdimuratov Qoraqalpog'iston toponimlarini shaxs nomlari, urug' nomlari, o'simlik va hayvon nomlaridan yasalgan toponimlarga semantik jihatdan bo'lib o'rgangan.²¹ G.Mambetova Qoraqalpog'istonning shimoliy tumanlari gidronimlarini leksik-semantik jihatdan etnonimlar, antroponimlar, zoonimlar, fitonimlar, obyektning tabiiy-geografik belgilari, topogidronimlar va ideologizmlardan hosil bo'lgan guruhlariga ajratgan.²² G.Abishov Chimboy tumani toponimlarini semantik xususiyatlariga ko'ra shaxs nomlari, etnonimlar, obyektning tabiiy-geografik belgilari, o'simlik, hayvon nomlari, muayyan kasb-hunar nomlari, yo'l munosabatlari bilan bog'liq nomlardan hosil bo'lgan toponimlar tarzida tasniflagan.²³

I.Xalmuratov Qoraqalpog'istonning janubiy tumanlari oykonimlarini semantik jihatdan quyidagi guruhlariga ajratgan: etnooykonimlar, antroooykonimlar, fitooykonimlar, sotsiooykonimlar, metaforik oykonimlar, geooykonimlar, kasb-hunar oykonimlari, sakral oykonimlar, zoooykonimlar, obyektning miqdoriy belgisini bildiruvchi oykonimlar va neooykonimlar.²⁴

Shunday qilib, toponimlarni tasniflashda leksik-semantik prinsipga, tadqiqot xarakteriga va tadqiqotchi oldiga qo'yilgan maqsadga asoslanish maqsadga muvofiqdir.

Taxtako'pir tumani toponimlarini semantik tasniflashda biz yuqorida ko'rsatilgan olimlarning tasniflariga tayanganmiz. Shunga qaramay, olimlar tomonidan taklif etilgan tasniflar Taxtako'pir tumani toponimlarining leksik-semantik xususiyatlarini to'liq ochib bera olmaydi. Tuman toponimlariga oid

²⁰ Нафасов Т. Топонимы Кашкадарьинской области: Автореферат диссертации кандидата филологических наук. – Ташкент: 1968; Атаниязов С. Түркменстаның топонимиясы. – Ашгабат, 1981; Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985; Холмўминов Х. Бойсун ноҳияси ва унинг атроф ҳудудлари микротопонимлари: Филология фанлари номзоди диссертацияси автореферати. – Тошкент, 1993; Хазиев Р.И. Историко-лингвистический анализ ойконимии Юго-Восточного Закамья Татарстана: Автореферат диссертации кандидата филологических наук. – Казань, 2000; Орипов Ў. Нурота тумани макро ва микротопонимиясининг лисоний таҳлили: Филология фанлари номзоди диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2003; Охунов Н. Ўзбекистон топонимияси. – Қўқон, 2005; Улуков Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008; Ахмадалиев Ю. Фарғона вилояти топонимлари. – Фарғона, 2009; Бўриев С. Ургут тумани микротопонимларининг лексик-семантик таҳлили: Филология фанлари номзоди диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2010; Неъматова Ю.О. Наманган вилояти ойконимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси (PhD) автореферати. – Фарғона, 2018; Ахмедов С. Семантические особенности топонимов Джизакской области. Автореферат диссертации доктора философии по филологическим наукам. – Самарқанд, 2019.

²¹ Абдимуратов К. Почему так названо? (на материалах каракалпакской топонимики). – Нукус: Каракалпакстан, 1970. – С. 33–42;

²² Мамбетова Г. Қорақалпоғистоннинг шимолий туманлари гидронимлари. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси автореферати. – Нукус, 2018. – Б. 36–40.

²³ Абишов Г. Чимбой тумани топонимларининг тарихий-лингвистик таҳлили. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси автореферати. – Нукус, 2019. – Б. 35–37.

²⁴ Холмуратов И.О. Жанубий Қорақалпоғистон ойконимларининг лисоний тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2020. – Б. 14–15.

to'plangan materiallar asosida ularni semantikasiga ko'ra bir necha guruhga bo'lish mumkin.

Uchinchi bobning **“Obyektning tabiiy-geografik xususiyatlarini ko'rsatadigan toponimlar”** deb nomlangan birinchi qismida Taxtako'pir tumani toponimlarining nominativ tamoyillari va semantik xususiyatlari yoritilgan. Ushbu guruhning semantik turida quyidagi kichik guruhlar ajratilishi mumkin:

1. Obyektning o'simlik dunyosi bilan bog'liq toponimlar. O'simliklar inson hayotida juda muhim o'rin tutadi. Shu sababli, odamlar qadimdan o'simliklarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lib kelganlar. Taxtako'pir tumanida *tora'ngil, jiyde, seksewil, selew, gewrek, qoyansuyek, qizilsha, jantaq, tobilgi, aqbas, tal, ajiriq, qarabaraq, julgin, jihgil, palati, aqtiken, sora* kabi yovvoyi o'simlik va daraxtlar o'sadi.²⁵ Bu o'simliklarning ko'p qismining nomlari Taxtako'pir tumani toponimiyasi tarkibida uchraydi: *Kendirlijap, Biydaykol, Gunjinih taqiri, Jiydeqala, Tora'ngilsay, Tomarboget, Aqbaslikol, Qamislikol, Shiginkol, Badiraqjap* va boshqalar.

2. Obyektning hayvonot dunyosi bilan bog'liq toponimlar. Taxtako'pir tumanida qush va hayvon nomlari bilan bog'liq toponimlar ma'lum o'rin egallaydi hamda ularni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

a) uy hayvonlari nomlaridan hosil bo'lgan toponimlar: *Botakol, Eshkiolgen, Narshoqat, Saritayqum, Tayketkenqaq;*

b) yovvoyi hayvonlar nomlaridan hosil bo'lgan toponimlar: *Tulkiboget, Tulkiataw, Shoshqaawil, Qasqirdih ini, Jolbaristih tam;*

g) qushlar nomlaridan hosil bo'lgan toponimlar: *Qarabayli, Ukilinih kran, Kejek, Japalaq, Aqqirwdih kran;*

d) suvda va quruqlikda yashovchi hayvonlar nomlaridan hosil bo'lgan toponimlar: *Qurbaqali kol, Ilaqali;*

e) hasharotlar nomlaridan hosil bo'lgan toponimlar: *Keneli.*

3. Obyektning rangini aks ettiruvchi toponimlar. Turkiy tillardagi toponimlar tarkibida uchraydigan rang bildiruvchi so'zlar qatoriga *qara, aq, kok, sari, qizil, ala, jasil, boz* va boshqa so'zlarni kiritish mumkin. Toponimlarda keng tarqalgan rang belgilarining mohiyati haqida ko'plab tilshunoslar turli materiallarda yozishgan.²⁶

Taxtako'pir tumani toponimlari asosan *aq, qara, sari, kok, qizil* kabi rang bildiruvchi so'zlar ishtirokida shakllangan. Taxtako'pir tumani hududida *aq* komponentli joy nomlari *qara* komponentli joy nomlariga qaraganda miqdoran ko'proq bo'lib, ular quyidagi toponimlarda uchraydi: *Aqjay, Aqbas, Aqgota, Aqbulaq, Aqjagis, Aqjap, Aqkesek, Aqkol, Aqqoltiq, Aqqudiq, Aqqum, Aqoy,*

²⁵ Эбдиев А., Реймов А. Тахтакопир тарийпи. – Ташкент: Турон-икбол, 2019, – Б. 11.

²⁶ Кононов А.Н. О семантике слов *кара* и *ак* в тюркской географической терминологии. //Известия отделения общественных наук АН Таджикской ССР, 1954, №5, – С. 83–85; Койчубаев Е. Нецветовая сущность топонимических компонентов. //Материалы Всесоюзной конференции по топонимике СССР. – Ленинград, 1965, – С. 185–189; Конкашпаев Г. Цветовые слова в тюркских топонимиках. //Географические науки. – Алма-Ата, 1969, – С. 72-83; Молчанова О.Т. Прилагательные сеамнтических полей *черный цвет* и *белыйцвет* в ономастиконе алтайцев. // Советская тюркология, 1985, №2; Қайдаров Э., Өмірбеков Б., Ахтамбердиева З. Сырға толы түр мен түс. – Алматы: Қазақстан, 1986; Шойбеков Р. Кейбір түр-түс атауларының мағыналары. //Известия АН Казахской ССР, серия филологическая, 1990, №3, – С. 13–18.

Aqshuqir, Aqshiganaq. Bu toponimlardagi *aq* leksemasi mazkur geografik obyektning turini ifodalaydi. *Qara* soʻzi ishtirokida esa jami 20 ta toponim shakllangan: *Qaraagash, Qarajilga, Qarajingil, Qarakol, Qaraoy, Qarasor, Qarateren, Qaraqol* va бошқалар.

Sari soʻzi ishtirokida yasalgan toponimlar Qoraqalpogʻistonning barcha hududlarida uchraydi.²⁷ Taxtakoʻpir tumanida *Sariqum* va *Sarikol* toponimlari mavjud.

Taxtakoʻpir tumani hududida *kok* soʻzi ishtirok etgan toponimlar uncha koʻp emas. Masalan, u uchta toponim tarkibida uchraydi: *Kokozek, Koksuvat, Koktobe.* Asosan, ularning maʼnosi nomiga mos keladi.

Qizil soʻzi ishtirok etgan toponimlar tuman hududida kam miqdorda uchraydi. Masalan, *Qiziljar, Qizilozek, Qiziltaqir* nomlarini keltirish mumkin. Bu toponimlardagi *qizil* soʻzi ham shu obyektning rangini ifodalaydi.

4. Obyektning sifat belgilarini oʻz ichiga olgan toponimlar. Taxtakoʻpir tumani hududida bunday toponimlar tarkibida geografik obyektning sifat belgisini aks ettiruvchi *boz, jaʼna, taza, sasiq* soʻzlari ishtirok etadi. Bu soʻzlar ishtirokida yasalgan toponimlar koʻp emas: *Bozjap, Jaʼnadarya, Tazajol, Ilaykol, Ashshibulaq, Taza posyolka, Sasiqkol, Batpaqotkel, Shorkol, Issibulaq, Ashshikol.*

5. Obyekt miqdorini koʻrsatuvchi toponimlar. Taxtakoʻpir tumani toponimlarining salmoqli qismi oʻz nomida son koʻrsatkichlariga ega. Taxtakoʻpir tumani hududida sonlar yordamida yasalgan toponimlar soni 31 tani tashkil etadi. Tuman toponimlari tarkibida *ush, tort, jeti, segiz, on* sonlari, shuningdek, *jalgiz, qos* soʻzlari ishtirok etgan. Ular faqat obyektlar sonini bildiradi: *Ushjap, Onjap, Jalgizqum, Torttobe, Segizkol, Jetinura, Jetiterek, Ushterek, Jalgizterek, Jalgizawit, Qosshin, Qosjar, Egizozek* va hokazo.

